



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 259 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutSIONal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in Uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	



DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA SUN'YIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI



Majidov Nizom Baxramovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0000-3009-1466

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tajribalar misolida davlat xaridlari jarayonida SI qo'llashning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi: jarayonlarni avtomatlashtirish, firibgarlik va korrupsiyani oldini olish hamda xarajatlarni optimallashtirish. Ilmiy izlanishlarda (ayniqsa, Scopus platformasiga indekslangan maqolalarda) hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida keltirilgan amaliy dalillar asosida Janubiy Koreya, Ukraina, Braziliya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar misolida qo'lga kiritilgan natijalar ko'rib chiqiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, SI bilan boyitilgan elektron xarid (e-procurement) platformalari odatdagi tartib-taomillarni avtomatlashtirish orqali jarayonlarni tezlashtiradi va ma'muriy yukni kamaytiradi; real vaqt rejimida buzilishlar hamda korrupsiya xavfini aniqlaydi va shu orqali huquqbuzarliklarni bartaraf etadi; shuningdek, xarajatlarni optimallashtirib, budjet mablag'larida katta tejamkorlikka erishadi.

Janubiy Koreyaning KONEPS, Ukrainadagi Prozorro, Braziliyadagi Alice kabi tizimlar yordamida davlat milliardlab dollar mablag'ni tejashga, jarayon vaqti hamda xarajatlarini kamaytirishga va firibgarlik holatlarini aniqroq aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Albatta, SI texnologiyalarini to'liq joriy etish jarayonida katta hajmdagi dastlabki sarmoya, ma'lumotlarni integratsiya qilish, xodimlarning malakasini oshirish kabi qiyinchiliklar mavjud. Biroq xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, SI joriy etishning ijobiy natijalari bu xarajatlarni oqilona oqlaydi hamda xususiy va davlat sektorlaridagi ishtirokchilar uchun amaliy foydalar keltiradi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, elektron xarid, sun'iy intellekt (SI), avtomatlashtirish, firibgarlikni aniqlash, xarajatlarni optimallashtirish, shaffoflik, hukumat xaridlari.

Abstract: This article examines the main directions of AI implementation in public procurement based on international experiences: process automation, prevention of fraud and corruption, and cost optimization. Drawing on evidence from scientific research (especially papers indexed on the Scopus platform) and international organizations' reports, the achievements of countries such as South Korea, Ukraine, Brazil, the United Kingdom, and others are reviewed.

The data indicate that AI-driven e-procurement platforms can automate routine procedures, speeding up workflows and reducing administrative burdens; detect potential violations and corruption risks in real time, thus preventing wrongdoing; and optimize expenditures, leading to significant budget savings.

Systems like South Korea's KONEPS, Ukraine's Prozorro, and Brazil's Alice have helped governments save billions of dollars, reduce processing times and costs, and more accurately detect fraudulent activities. Certainly, there are challenges in fully adopting AI, such as substantial initial investment, data integration, and building workforce capacity. Yet, international experiences demonstrate that the benefits of AI, improved outcomes for both private and public sector stakeholders justify these costs and efforts.

Key words: public procurement, E-procurement, artificial intelligence (AI), automation, fraud detection, cost optimization, transparency, government purchasing.



Аннотация: В данной статье, опираясь на международный опыт, рассматриваются основные направления применения ИИ в сфере госзакупок: автоматизация процессов, предотвращение мошенничества и коррупции, а также оптимизация затрат.

На основе данных научных исследований (в особенности индексированных в Scopus) и отчетов международных организаций анализируются результаты, достигнутые в таких странах, как Республика Корея, Украина, Бразилия, Великобритания и другие. Согласно имеющейся информации, платформы электронных закупок с использованием ИИ позволяют автоматизировать рутинные процедуры (тем самым ускоряя их и снижая административную нагрузку), выявлять потенциальные нарушения и коррупционные риски в режиме реального времени (что помогает предупреждать противоправные действия), а также оптимизировать расходы, в результате чего достигается значительная экономия средств.

Системы, такие как KONEPS в Республике Корея, Prozorro на Украине и Alice в Бразилии, помогли государственным органам сэкономить миллиарды долларов, сократить время и стоимость процедур, а также повысить точность выявления мошенничества. Безусловно, при полном внедрении ИИ существуют определенные трудности – значительные начальные затраты, интеграция данных и повышение квалификации персонала. Тем не менее, мировой опыт показывает, что выгоды от применения ИИ оправдывают эти затраты и приносят практическую пользу как частному, так и государственному сектору.

Ключевые слова: государственные закупки, электронные, искусственный интеллект (ИИ), автоматизация, выявление мошенничества, оптимизация затрат, прозрачность, закупки государственного сектора.

KIRISH

Davlat xaridlari — hukumat tashkilotlari tomonidan tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish jarayonidir [1]. Iqtisodiy jihatdan olib qaralganda, davlat xaridlari keng ko'lamdagi faoliyatlarni qamrab oladi, chunki taraqqiy etgan iqtisodiyotlarda bu ko'rsatkich YalMning 12 foizigacha, rivojlanayotgan davlatlarda esa 30 foizgacha yetishi mumkin [1]. Shu bois, davlat xaridlari jarayonidagi har qanday kichik islohot yoki samaradorlikni oshirish choralari ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga katta ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi o'n yilliklarda elektron xarid tizimlari keng joriy etilmoqda va ular shaffoflik hamda samaradorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutgan [2]. Biroq, so'nggi paytlarda sun'iy intellekt texnologiyalari e'tibor markaziga chiqmoqda. SI algoritmlari katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlay olishi, murakkab andozalarni tezda aniqlashi va avtomatlashtirish imkonini berishi sababli, an'anaviy davlat xaridlari jarayonlarida uchraydigan quyidagi murakkabliklarni bartaraf etishda yordam berishi kutilmoqda [3][4]:

- Jarayonlarning uzoq davom etishi va ko'p mehnat talab qilishi: tender e'lon qilish, takliflarni tahlil qilish, yaroqsiz hujjatlarni ajratish, g'olibni aniqlash, shartnomani rasmiylashtirish kabi amallar ko'p vaqt va kuch talab qiladi.

- Korrupsiya va firibgarlik xatarlari: davlat xaridlari jarayonida bid-rigging (til biriktirish), soxta takliflar, manfaatlar to'qnashuvi singari salbiy holatlar tez-tez uchraydi. Buning oqibatida budjet xarajatlari ortib, jamoatchilik ishonchi pasayadi.

- Moliya resurslaridan oqilona foydalanmaslik: xarid hajmi, tender va tanlov jarayonlaridagi nuqsonlar, narxlarni solishtirishdagi kamchiliklar sababli davlat ko'pincha "ortiqcha" mablag' to'lashga majbur bo'ladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, SI mazkur muammolarni hal etishda innovatsion yechim sifatida e'tirof etilmoqda [5][6]. Mazkur maqolada SI joriy etish bo'yicha ilg'or davlatlarning tajribasi o'rganilib, ilmiy nashrlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlaridan keltirilgan aniq misollar tahlil qilinadi. Maqsad — ilg'or tajribalarni umumlashtirish va shu orqali davlat qaror qabul qiluvchilari, tadqiqotchilar hamda amaliyotchilarni SI texnologiyalaridan unumli foydalanishga chorlovchi takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlariga SI ni qo'llash borasidagi tadqiqotlar so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda [5]. Elektron xarid tizimlari (e-procurement) bir necha yildan beri samaradorlik hamda shaffoflikni oshirishga yordam berib kelmoqda [6]. Ayni paytda, SI algoritmlari e'lon qilinayotgan tenderlar va xarid ma'lumotlaridagi katta hajmdagi ko'rsatkichlarni tahlil qilib, ilgari faqat qo'lda yoki umuman tekshirilmagan sohalarda samarali nazorat va bashorat qilish imkonini bermoqda [2].

Bansal va Jain (2023) tadqiqotlarida SI texnologiyalari davlat xaridlari jarayonida yetkazib beruvchini (supplier) tanlash, takliflarni baholash va shartnomalarni boshqarish kabi murakkab ishlarni avtomatlashtirishi mumkinligi ko'rsatilgan [2]. Shuningdek, mashinaviy o'qitish (machine learning) davlat tashkilotlariga talablarni oldindan taxmin qilish, xatarlarni baholash hamda xarajatlarni tahlil qilishda yuqori samaradorlik berishi mumkin [2].



Alohida e'tibor SI orqali firibgarlik va korrupsiyani aniqlash masalasiga qaratilmoqda [4]. An'anaviy tekshiruvlar odatda kechikish bilan amalga oshirilganligi sababli, ko'plab qoidabuzarliklar yoki til birlashtirish holatlari e'tibordan chetda qolib ketardi. SI esa real vaqt rejimida anomalialarni aniqlab, manfaatlar to'qnashuvi yoki soxta takliflarni payqab, tezkor choralar ko'rish imkonini beradi [4][7].

Amiruddin va boshqalar (2024) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Indoneziyada davlat xaridlaridagi murakkab firibgarlik sxemalarini aniqlashda SI tekshiruvlarining aniqlik darajasi an'anaviy usullarga nisbatan ancha yuqori [8].

Xalqaro tashkilotlar: Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Yevropa Ittifoqi komissiyasi tomonidan e'lon qilingan hisobotlar ham SI joriy etilayotgan bir qator davlatlarda kuzatilgan ijobiy natijalarni tasdiqlaydi [1][4][5]. Buyuk Britaniyaning Raqobat va bozorlar boshqarmasi (CMA) davlat xaridlarida bid-rigging holatlarini aniqlash uchun maxsus SI tizimlarini yo'lga qo'ygan bo'lib, dastlabki natijalar juda muvaffaqiyatli ekanligini ko'rsatgan [9]. Shuningdek, Braziliya misolida Jahon banki tomonidan GRAS deb nomlanuvchi tizimda siyosatchilar, xizmatchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasidagi mumkin bo'lgan aloqadorliklarni tezkor aniqlashda SI katta yordam berayotganligi ma'lum qilingan [7].

Umuman olganda, adabiyotlardagi umumiy xulosa shuki — SI davlat xaridlarining umumiy samaradorligini tubdan oshirishi, budget mablag'larini tejashi va adolatli raqobat muhitini yaratishi mumkin [8]. Biroq bu jarayonni to'g'ri boshqarish, zarur me'yoriy-huquqiy asoslarni kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda tizimli islohotlarni amalga oshirish talab etiladi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sifat tahlili usuli qo'llanildi. Ma'lumotlar turli manbalardan Scopus indeksidagi ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, ishonchli nashrlar va tarmoqlardan — jamlandi. Tadqiqot dizayni quyidagilardan iborat:

Adabiyotlar tanlovi: so'nggi o'n yillikda nashr etilgan "Davlat xaridlarida SI", "Firibgarlikni aniqlash", "Davlat xaridlarini avtomatlashtirish" mavzularidagi ilmiy maqolalar tanlab olindi. Shuningdek, Jahon banki, OECD, Yevrokomissiya va xususiy tahliliy markazlarning tegishli hisobotlari, siyosiy hujjatlari hamda tavsiyalari ko'rib chiqildi.

Case (amaliy misol) tahlili: tanlangan adabiyotlardan Janubiy Koreya, Ukraina, Braziliya, Buyuk Britaniya kabi ilg'or tajribaga ega davlatlarda joriy etilgan SI texnologiyalari bilan bog'liq real amaliy holatlar yig'ib chiqildi [2][5][6][9]. Bunda asosiy urg'u konkret natijalar yoki statistik ko'rsatkichlar mavjud misollarga qaratildi.

Ma'lumotlarni ajratish: har bir case bo'yicha quyidagilar qayd etildi — qaysi turdagi SI texnologiyasi (mashinaviy o'qitish, chatbot, anomaliya aniqlash tizimi va hokazo), davlat xaridlarining qaysi bosqichi qamrab olingani (takliflarni baholash, firibgarlikni aniqlash, rejalashtirish va boshqalar), hamda erishilgan natijalar (foizdagi iqtisod qilingan mablag', jarayonlarning tezlashishi, firibgarlikni aniqlashda ko'rsatkichlar).

Tahlil: olingan ma'lumotlar quyidagi uchta mavzuli yo'nalishda tizimlashtirildi:

- Davlat xaridlarini avtomatlashtirish
- Firibgarlik va korrupsiyani oldini olish
- Xarajatlarni optimallashtirish

Ushbu metodologiya turli manbalardagi dalillarni qiyosiy tahlil qilishga hamda SI joriy etilishi natijasida qanday ijobiy o'zgarishlar ro'y berishini yaxlit ko'rinishda aks ettirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridlari jarayonlari turli bosqichlarda qog'ozbozlik, takroriy amallar va ko'p bosqichli tasdiqlar bilan murakkablashib ketishi mumkin [2]. SI texnologiyalari hamda ilg'or raqamli yechimlar bu jarayonlarni avtomatlashtirish orqali budget va vaqtni tejab, hujjat tayyorlashdagi xatoliklarni kamaytirishi mumkin [6].

Janubiy Koreya (KONEPS) tajribasi. KONEPS — butun davlat miqyosida yagona elektron xarid platformasi bo'lib, 57 mingdan ortiq davlat tashkilotlari va 434 mingdan ziyod yetkazib beruvchilarni birlashtiradi [6]. Garchi KONEPS dastlab SI asosida qurilmagan bo'lsa-da, keyinchalik avtomatik e'lon berish, xabarnoma jo'natish, raqamli imzo va boshqa ilg'or xususiyatlarni o'z ichiga kiritgan. Natijada hujjat topshirish jarayonlari optimallashtirildi, ortiqcha bosqichlar bekor qilindi va yiliga 8 milliard AQSh dollariga teng davlat mablag'larini tejashga erishildi [6]. Ma'lumotlarga ko'ra, KONEPSning kelgusi "Next Generation" versiyasi SI texnologiyalarini keng qo'llab, foydalanuvchilarga yanada qulay interfeys hamda aqlli yordamchi funksiyalarni taklif etadi [6].

AI-chatbotlar va virtual yordamchilar. Taklif berish yoki tenderlarda ishtirok etish jarayoni odatda iqtisodiy operatorlar uchun murakkab bo'lishi mumkin. Chatbotlar 24/7 rejimda takroriy savollarga javob berib, an'anaviy telefon yoki elektron pochta orqali xodimlar sarflaydigan vaqtni kamaytiradi [10]. Masalan, AQShning El Paso shahri "Ask Laura" nomli chatbotni joriy etib, 1000 ga yaqin tez-tez so'raladigan savollarga avtomatik



javob berishni yo'lga qo'ygan [10]. Natijada, yetkazib beruvchilar ma'lumot olish bo'yicha kechayu kunduz to'sqinliksiz xizmatdan foydalana boshlashdi. Buyuk Britaniyada ham YPO (Public-Sector Buying Organisation) shunga o'xshash chatbotni ishga tushirgan [10]. Bu turdagi virtual yordamchilar ishtirokchilar bilan muloqotni soddalashtiradi hamda xodimlarning savollarga javob berishdagi yukini kamaytiradi.

Robotlashtirilgan jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA) va AI orqali baholash. Ba'zi davlat tashkilotlari takliflarni dastlabki texnik ko'rib chiqish, hujjatlarni filtrlash, yaroqsiz yoki xavfli takliflarni aniqlash kabi ishlarda SI algoritmlaridan foydalanishni boshlagan [9]. Masalan, AQShning Harbiy havo kuchlari (Air Force) IBMning Watson superkompyuteridan foydalanib, shartnomalarni skanerlash va noan'anaviy shartlarni topishda eksperimental loyiha boshlab yuborgan [10]. Natijada, shartnomalarni ko'rib chiqish va xatoliklarni aniqlash vaqti sezilarli darajada qisqargan.

Davlat xaridlari jarayonlarini qisqartirish. Xususi sektor tajribasida SI yechimlari an'anaviy tarzda 6 oygacha cho'zilishi mumkin bo'lgan RFP (Request for Proposal) jarayonlarini bir necha soat, hatto 23 daqiqagacha qisqartirgan holatlar qayd etilgan [11]. Davlat sektorida ham COVID-19 pandemiyasi davrida tezkor xaridlarga ehtiyoj ortgani sababli joriy qilingan raqamli yechimlar SIning vaqt va sa'y-harakatni tejash borasidagi imkoniyatlarini ochib berdi [4]. Shu bois, takrorlanuvchi funksiyalarni avtomatlashtirish orqali inson resurslarini strategik qarorlar qabul qilishga yo'naltirish imkoniyati paydo bo'ladi [2].

Umuman olganda, SI asosida avtomatlashtirish jarayonlarning tezkorligi, shaffofligi va to'g'ri ma'lumot almashinuvi darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Jumladan, Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi ko'lami va natijalari bo'yicha ilg'or namunadir; bu tizim davlat miqyosida elektron xaridni muvaffaqiyatli tashkil etishning samarali tajribasidir [6]. Chatbotlar, RPA va boshqa texnologiyalar esa jarayonni yanada qulay va ommabop qilmoqda. Biroq bunday texnologik yechimlarni amaliyotga tatbiq etishda ishonchli ma'lumotlar bazasi, xodimlar malakasi va tashkiliy madaniyat hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Davlat xaridlari ko'pincha korrupsiya, til birlashtirish, soxta takliflar yoki xizmat vakolatini suiiste'mol qilish kabi xatarlar bilan yuzlashadi [9]. An'anaviy audit tizimlarida odatda huquqbuzarliklar kechikib aniqlanadi yoki umuman ko'zdan chetda qoladi. SI esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali real vaqt rejimida shubhali tendensiyalar yoki anomalialarni aniqlash imkonini beradi [4].

Buyuk Britaniya: Bid-rigging'ni aniqlash. 2025-yilning yanvar oyida Buyuk Britaniya Raqobat va bozorlar boshqarmasi (CMA) bid-rigging'ni aniq tashxislash maqsadida SI asosidagi tizimni ishga tushirdi [9]. Ushbu tizim turli davlat tenderlaridagi narx takliflari o'rtasidagi o'xshashliklar, raqobatchilarning o'zaro almashinishi, navbat bilan g'alaba qozonish kabi alomatlarni topib, potentsial collusion'ni fosh etadi [9]. CMA dastlabki sinovlarda bunday til birlashtirish holatlari allaqachon aniqlanganligini, bu esa hukumatga yiliga 21 milliard funtgacha ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan firibgarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini bildirgan [9].

Ukraina: Prozorro va Dozorro tajribasi. Ukrainada 2016-yilda ishga tushirilgan Prozorro elektron xarid platformasi barcha tender ma'lumotlarini ochiq e'lon qiladi [3][6]. Keyinchalik Dozorro nomli SI va risk-analitika tizimi integratsiya qilinib, real vaqt rejimida shubhali holatlarni "flag" qilib boradi [10]. Natijada korrupsiya alomatlari, narx differensiyalari, faqat bitta taklif bilan o'tkazilgan tenderlar, collusive bidding kabi holatlar avvalgiga nisbatan ancha erta aniqlanishi boshlandi [3]. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Dozorro yordami bilan firibgarliklar aniqlanishi 26 foizga ortgan, collusion holatlari esa 298 foiz ko'proq fosh qilingan [10]. Prozorro platformasi ishga tushgandan keyingi dastlabki ikki yil ichida qariyb 1,9 milliard AQSh dollari miqdorida mablag'ni tejashga erishilgan bo'lib, bunga asosiy sabab raqobatning kuchayishi va korrupsiyaning kamayishi hisoblanadi [6].

Braziliya: Alice tizimi. Braziliya Bosh nazorat organi (CGU) Alice deb nomlangan SI tizimini ishga tushirib, firibgarlik, xatolik yoki bid-rigging holatlari bo'yicha 40 ga yaqin risk-indikatorni doimiy nazorat qilib bormoqda [10]. Yuqori xavfli tenderlar aniqlanganda Alice tezkor signal beradi va shu orqali audit organlari tender berilishidan oldin chora ko'rishi mumkin. Natijada, avvallari o'rtacha 400 kundan ortiq davom etgan audit jarayoni 8 kunga qisqartirilgan [10]. Bu esa katta hajmdagi "shubhali" mablag'larning berilishining oldini olish imkonini bergan. Xususan, 9,7 milliard real qiymatga teng potentsial shubhali shartnomalar to'xtatib qolingan [10]. Bu misol SI texnologiyalari audit jarayonini qanday tezlashtirishi va aniqroq ma'lumot berishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Cross-dataset tahlil. SI, shuningdek, turli ma'lumotlar bazalarini o'zaro taqqoslashda katta qulaylik yaratadi. Jahon banki tomonidan taklif etilgan GRAS (Governance Risk Assessment System) pilot loyihasi Braziliyada joriy etilib, davlat xizmatchilari, siyosatchilar, tender g'oliblari va boshqa kompaniyalar o'rtasidagi ties (aloqadorlik) yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tezda aniqlashda samarali qo'llanilgan [7]. Bunday chuqur tahlil inson omiliga tayangan an'anaviy amaliyotlarda deyarli imkonsiz edi, chunki bitta xodim o'n minglab hujjatlarni ko'rib chiqishga ulgurmas edi. SI esa bu ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda to'liq qamrab olib, aloqadorlik zanjirlarini qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini beradi.

SI texnologiyalari firibgarlik va korrupsiya holatlarini izohlab bo'lmaydigan darajada samarali aniqlab, oldini oluvchi kuchli mexanizmga aylanmoqda [10]. Ukraina va Braziliya bu borada ibratli misollarni namoyon etdi: shaffoflik, ochiq ma'lumotlar, fuqarolik jamiyatining kuzatuvchi hamda SI asosida anomalialarni doimiy ravishda



skaner qilish korrupsiyani keskin kamaytirishi va davlat budjeti uchun ulkan mablag'larni tejashi mumkin [3] [6]. Buyuk Britaniya esa collusive bidding'ni ochishda SI yordamidan foydalanayotganini e'lon qilgan [9]. Albatta, bunday texnologiyalarni keng ko'lamda qo'llash uchun ma'lumotlar sifatini oshirish, huquqiy bazani takomillashtirish va mutaxassislar tayyorlash kabi vazifalar mavjud [8]. Biroq dastlabki samarali natijalar ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanini tasdiqlaydi.

Davlat xaridlarida maqsad faqat eng arzon narxni topish emas, balki jamiyatga eng maqbul qiymatni (value for money) yetkazishdir [2][3]. Biroq, raqobat va shaffoflik mavjud bo'lmasa, davlat ko'pincha bozor narxidan yuqoriroq to'lovlarni amalga oshirishi ehtimoli yuqori bo'ladi. SI texnologiyalari nafaqat korrupsiyani kamaytiradi, balki xarajatlarni samarali rejalashtirish, xarid strategiyasini takomillashtirish hamda narx kelishuvlarini aniqroq shakllantirishga yordam beradi [4][11].

Shaffoflik va raqobat tufayli tejash. Ukrainadagi Prozorro tizimidagi kabi [3][6], barcha ma'lumotlar ochiq e'lon qilingach, ko'proq yetkazib beruvchilar tenderlarda qatnashadi, narx bo'yicha oshkoralik mustahkamlanadi va boshqalarning takliflari bilan solishtirish imkoniyati paydo bo'ladi. SI analitika vositalari esa buzilish yoki noqonuniy kelishuv holatlarini erta bosqichda aniqlab, haqiqiy bozor narxlarini shakllanishiga xizmat qiladi [10]. Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi ham raqobatning kuchayishi va jarayonlarning tezlashishi hisobiga yiliga 8 milliard AQSh dollari miqdorida iqtisod qilishga erishgan [6].

Spend analytics va talabni prognoz qilish. AI davlat organlariga o'tgan yillardagi xarid ma'lumotlarini tahlil qilib, xuddi shu turdagi tovarlar yoki xizmatlar bir qancha idoralarda turlicha narxlarda sotib olinganini aniqlashi mumkin [4][11]. Bu umumiy xarid (aggregated procurement) yoki konsolidatsiyalash orqali bir nechta idoraning ehtiyojini birlashtirib, yirik partiyada arzonroq narxda xarid qilish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, AI asosidagi bashorat modullari kelajakda qanday tovarlarga qancha talab bo'lishi mumkinligini ko'rsatib, oldindan shartnoma tuzish yoki zaxiralarni maqbullashtirishga ko'maklashadi [2]. Xususi sektor tajribasi shuni ko'rsatadiki, spend analytics joriy qilingach, xarajatlarni o'rtacha 20 foizgacha qisqartirish mumkin [11]. Davlat sektorida ham shunday ko'rsatkichlarga erishish real, ammo bu yo'lda raqamli infratuzilma, xodimlar bilim va ko'nikmasi, hamda qonunchilikdagi cheklolar hisobga olinishi zarur.

Tezkor audit va jarayonlarga bog'liq xarajatlarni kamaytirish. Ilgari audit jarayonlari bir yil yoki undan ko'proq vaqt talab qilgan bo'lsa, SI orqali bu muddat bir necha kunga qisqaradi [10]. Natijada xodimlarning ortiqcha yuklamasi kamayadi, shuningdek tekshiruvdagi kechikish sababli davlat to'lashga majbur bo'ladigan mablag'larning oldi olinadi [7][10]. Masalan, AQSh G'aznachiligi (Department of the Treasury) misolida AI yordamida noto'g'ri to'lovlar 385 foiz ko'proq aniqlanib, 375 million dollar qaytarib olingan [12][13]. Xuddi shunga o'xshab, Braziliyaning Alice tizimi 9,7 milliard real qiymatdagi shubhali tenderlar uchun xarajatlarni to'xtatishga muvaffaq bo'lgan [10].

Hayotiy sikl qiymatini boshqarish. Ba'zi davlat organlari shartnoma imzolanganidan keyin ham xarid qilingan tovarlar yoki xizmatlarning butun hayotiy tsikli davomida xarajatlar o'zgarishini, ekspluatatsiya yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni SI yordamida monitoring qilib bormoqda [4]. Natijada, dastlabki tanlovda eng arzon taklif emas, balki uzoq muddatda kamroq xarajat talab qiladigan yoki chidamliligi yuqori bo'lgan yechimlar afzal topiladi. Bu esa uzoq muddatli optimal natijaga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa. Turli davlatlarda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, SI nafaqat korrupsiyani kamaytirish, balki to'g'ridan-to'g'ri xarid jarayonlarini takomillashtirish va xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha aniq imkoniyatlarga ega [6][10][11]. Bunda dastlabki sarmoyalar — platformani yaratish, xodimlarni o'qitish, texnik infratuzilmani joriy etish — yetarlicha katta bo'lishi mumkin. Biroq o'rta va uzoq muddatda bu investitsiyalarning qaytim darajasi yuqori bo'lib, ayrim holatlarda hatto 3 oy ichida o'zini oqlagan misollar qayd etilgan [11]. Davlatlar uchun bu — budjetni samarali boshqarish va aholi farovonligini oshirishda salmoqli zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari jarayoniga SI texnologiyalarini joriy etish avtomatlashtirish, shaffoflik va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan sezilarli ijobiy natijalar berishi mumkin. Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi katta hajmdagi amaliyotda samaradorlikni namoyon etgan bo'lsa [6], Ukrainadagi Prozorro va Dozorro korrupsiyaga qarshi kurash hamda ochiqlikni ta'minlash borasida ibratli namuna bo'lib xizmat qilmoqda [3][10]. Braziliyaning Alice tizimi esa audit samaradorligini tubdan oshirish va budjet mablag'larini asossiz sarflanishdan himoya qilishda SI texnologiyalarining qanchalik kuchli vosita ekanini isbotlagan [10].

Yevropa Ittifoqi va Jahon banki kabi tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan loyihalar ko'plab davlatlarda hali pilot bosqichida bo'lsa-da, dastlabki natijalar ijobiy baholanmoqda [5][8]. SI yordamida buyurtma berishdan tortib, takliflarni baholash, shubhali bitimlarni erta bosqichda aniqlash, narxlarni bashorat qilish, audit hamda xarid tsiklining barcha bosqichlarida monitoring olib borish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.



Biroq, ayrim davlatlarda to'laqonli raqamli infratuzilmaning mavjud emasligi, ma'lumotlar sifati pastligi, xodimlar malakasining yetishmasligi, huquqiy ziddiyatlar va manfaatdor tomonlar qarshiligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda [8]. Shu sababli, SI "yordamchi vosita" sifatida emas, balki kompleks islohotlar tarkibida joriy etilishi zarur. Bunda qonunchilik, axborot xavfsizligi, foydalanuvchilarga qulay interfeyslar hamda malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim jihatlar inobatga olinishi lozim.

Tavsiyalar:

1. Yaxlit elektron xarid platformasini yaratish. Davlat xaridlari bo'yicha yagona raqamli platforma (KONEPS, Prozorro kabi) tashkil etilib, barcha jarayonlarni elektron shaklga o'tkazish zarur. Bu nafaqat shaffoflikni oshiradi, balki SI uchun kerakli ma'lumotlar bazasini yaratadi.

2. Pilot loyihalarni ishga tushirish. Katta ko'lamli joriy etishdan avval, korrupsiyaga moyil yoki risk yuqori sohalarda SI asosida firibgarlikni aniqlash, chatbotlar, RPA, spend analytics kabi yechimlarni sinov tariqasida joriy qilish lozim [8]. Bu texnologiyaning real foydasini ko'rsatadi va xodimlarni tayyorlash imkonini yaratadi.

3. Xalqaro tajriba va hamkorlik. Ukrainadagi Dozorro, Braziliyadagi Alice, Janubiy Koreyadagi KONEPS va Buyuk Britaniyadagi CMA kabi amaliy ishlar universal andozalarni shakllantirishda foydalidir [3][9][10]. Ularni chuqur o'rganish, mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali vaqt va resurs tejiladi.

4. Inson omili va kadrlar salohiyati. SI — faqat texnologik yechim emas. Davlat xizmatchilari, audit organlari xodimlari va IT mutaxassislaridan iborat jamoa ushbu tizimlardan foydalana olish darajasiga ega bo'lishi kerak. Ular SI chiqargan natijalarni to'g'ri talqin qilishi, "flag" signallarni anglab, o'z vaqtida javob choralarini ko'rishini lozim [2].

5. Huquqiy-me'yoriy asoslarni mustahkamlash. SI orqali aniqlangan dalillar huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Masalan, Buyuk Britaniyada 2023-yilda qabul qilingan Procurement Act SI tomonidan aniqlangan bid-rigging dalillariga huquqiy asos yaratgan [9]. Shuningdek, SI qarorlari shaffofligini ta'minlash, noto'g'ri xulosalardan (false positives) himoya, va shikoyat mexanizmlarini joriy etish zarur.

6. Natijalarni monitoring qilish va jamoatchilikka e'lon qilish. Joriy etilgan SI vositalarining amaliy natijalari tejab qolingan mablag'lar, aniqlangan firibgarliklar, vaqt tejilishi muntazam ravishda tahlil qilinib, ochiq e'lon qilinishi lozim [2][3]. Bu jamoatchilik ishonchini oshiradi va siyosiy-huquqiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ITCILO (2021). 10 Surprising Facts on Public Procurement. International Training Centre of ILO, 3 avgust 2021.
2. Bansal, S., & Jain, N. (2023). A Study on the Impact of Artificial Intelligence Techniques in Enhancing Electronic Public Procurement System. International Journal of Innovative Science and Research Technology, 8(6).
3. World Bank (2024). East Asia Pacific Procurement Analysis – eGP Strategy. [KONEPS (Janubiy Koreya), ProZorro (Ukraina), Comprasnet (Braziliya) Case-tahlillari].
4. Global Anticorruption Blog (2025). Artificial Intelligence in Anticorruption: Opportunities and Challenges (Soo Jin So, 9-yanvar, 2025).
5. DLA Piper (2025). CMA unveils AI-powered tool to combat bid-rigging in public procurement (17-yanvar, 2025).
6. Butterfly Data (2023). AI: A Game-Changer in Combating Corruption in Public Procurement (Blog, M. Strawinska, 21-noyabr, 2023).
7. OECD OPSI (2021). DOZORRO – Case study in the Observatory of Public Sector Innovation.
8. Amiruddin, A. va boshq. (2024). The Use of AI in Internal Supervision to Reduce Fraud in the Public Procurement System in Indonesia. ProBisnis: Jurnal Manajemen, 15(5): 769–780.
9. DLAPIPER (2025). CMA unveils AI-powered tool to combat bid-rigging in public procurement (Insight article, 17-yanvar, 2025).
10. GovTech (2017). Meet El Paso's Procurement Chatbot "Ask Laura" – She's a Real Game Changer. (Government Technology, dekabr 2017).
11. HFS Research & Globality (2024). Freedom within Fences: Autonomous Sourcing Goes Mainstream (Hisobot xulosalari: The CFO, 9-iyul, 2024).
12. US Department of the Treasury (2023). AI-based Fraud Detection in Federal Payments: FY2023 Report.
13. VitalLaw (2023). Significant Increase in Fraud Detection through AI Implementation: Treasury Department Brief, 12-noyabr, 2023.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
